



TIJORAT BANKLARIDA CHAKANA KREDITLASH AMALIYOTINI FICO VA VANTAGESCORE BILAN INTEGRATSIYASI

INTEGRATION OF FICO AND VANTAGESCORE INTO RETAIL LENDING PRACTICES IN COMMERCIAL BANKS

¹Ashirov Nurmurod
Qulmat o'g'li

¹Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya Abstract

Uzb. - Ushbu maqolada FICO va VantageScorening tijorat banklaridagi chakana kreditlash amaliyotiga integratsiyalashuvi masalasi tahlil qilingan. Tadqiqot doirasida kredit reytinglarining bankning kredit berish qarorlariga, foiz stavkalarini belgilash hamda kredit riskini baholash jarayonlariga ko'rsatadigan ta'siri o'rganilgan. Shuningdek, tijorat banklari va onlayn kredit platformalarining solishtirma ma'lumotlari tahlil qilinib, kredit olish imkoniyatini belgilaydigan asosiy omillar aniqlangan. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, FICO va VantageScore modellarini avtomatlashtirilgan kredit qarorlari tizimiga integratsiya qilish kredit risklarini aniq prognoz qilish, kredit portfelining sifatini oshirish hamda turli mijoz profillari uchun imkoniyatlarni kengaytirishga xizmat qiladi.

Eng. - This article analyzes the integration of FICO and VantageScore models into retail lending practices in commercial banks. The study examines the impact of credit scores on banks' credit decision-making processes, interest rate determination, and credit risk assessment. Additionally, a comparative analysis of commercial banks and online lending platforms was conducted to identify the key factors influencing credit eligibility. The analysis indicates that integrating FICO and VantageScore models into automated credit decision systems facilitates accurate credit risk forecasting, improves the quality of the credit portfolio, and expands opportunities for clients with diverse profiles.

Kalit so'zlar: Keywords:

❖ *chakana kreditlash, tijorat banklari, FICO, VantageScore, kredit skoring, kredit, riskni baholash.*

❖ *retail lending, commercial banks, FICO, VantageScore, credit scoring, loan, risk assessment.*

Kirish.

Hozirgi globallashtirish va raqamli transformatsiya sharoitida tijorat banklari faoliyatida chakana kreditlash amaliyoti muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Aholi va kichik biznes subyektlarining kredit mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojining ortib borishi banklardan kredit xavfini samarali boshqarish, qarzдорlarning to'lov qobiliyatini aniq baholash hamda kredit portfelining sifatini ta'minlashni talab etmoqda. Shu

nuqtayi nazardan, chakana kreditlash modellarini takomillashtirish va ularni zamonaviy kredit skoring tizimlari bilan integratsiya qilish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

"O'zbekiston - 2030" strategiyasiga muvofiq, bank tizimida islohotlarni jadallashtirish, bank xizmatlari bozori hajmini oshirish va sohada raqobatni rivojlantirish maqsadida Banklarga xalqaro tan olingan minimal standart va talablarni joriy qilish

orqali me'yorlar va nazorat bazalarini takomillashtirish vazifasi belgilangan [1].

An'anaviy kreditlash amaliyotida qarz oluvchining moliyaviy holati asosan manual tarzda, ya'ni xodimlar tomonidan tahlil qilinib, subyektiv omillar ta'sirida qaror qabul qilingan. Bugungi kunda esa avtomatlashtirilgan va standartlashtirilgan kredit baholash modellari keng qo'llanilmoqda. Xususan, Fair Isaac Corporation (FICO) va VantageScore kredit skoring modellari xalqaro amaliyotda eng ishonchli va samarali mexanizmlar sifatida tan olingan. Ushbu modellar mijozning kredit tarixi, to'lov intizomi va moliyaviy xulq-atvorini raqamli ko'rsatkichlar asosida obyektiv tarzda baholash imkonini beradi.

Tijorat banklarida chakana kreditlash modellari FICO va VantageScore tizimlari bilan integratsiya qilinishi kredit qarorlarini qabul qilish jarayonini tezlashtirish, inson omilini kamaytirish hamda kredit xavfini minimallashtirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, mazkur integratsiya bank resurslaridan samarali foydalanish, kredit portfelining barqarorligini ta'minlash va mijozlar bilan o'zaro munosabatlarda shaffoflikni oshirishga imkon yaratadi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Tijorat banklarida chakana kreditlash modellari va kredit xavfini baholash masalalari xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan keng o'rganilgan. Ilmiy adabiyotlarda kreditlash jarayonini takomillashtirish, risklarni boshqarish va avtomatlashtirilgan skoring tizimlaridan foydalanish bank tizimi barqarorligining muhim omillaridan biri sifatida qaraladi.

Amerikalik iqtisodchi Thomas A. Durkin o'z ilmiy ishlarida iste'mol kreditlashining institutsional asoslari va kredit qarorlarini qabul qilishda axborot asimmetriyasini kamaytirish masalalariga e'tibor qaratgan. Uning tadqiqotlarida kredit skoring tizimlari banklar uchun riskni baholashda samarali instrument sifatida e'tirof etilgan [2].

Fair Isaac Corporation (FICO) asoschisi R. William va kompaniya mutaxassislari tomonidan ishlab chiqilgan ilmiy-amaliy tadqiqotlarda kredit skoring modellarining nazariy asoslari, algoritmlari va bank amaliyotida qo'llanilishi yoritilgan. Ushbu ishlar FICO ballarining defolt xavfini bashorat qilishda yuqori aniqlikka egaligini ilmiy jihatdan asoslab beradi [3].

Kredit risklari sohasida taniqli olim A. Saunders o'z ilmiy tadqiqotlarida bank risk-menejmenti tizimi, kredit portfelini samarali boshqarish hamda chakana kreditlash jarayonida statistik modellardan foydalanish masalalarini tahlil qilgan. Uning asarlarida kredit skoring modellari bank faoliyatining barqarorligini ta'minlashda muhim metodologik vosita sifatida e'tirof etiladi hamda kredit risklarini baholash va minimallashtirishda asosiy omillardan biri sifatida asoslab beriladi [4].

F.Mishkin moliyaviy bozorlar va bank tizimiga bag'ishlangan tadqiqotlarida kredit munosabatlarida axborotning roli, mijozlarni saralash (screening) va monitoring masalalarini yoritgan. Uning xulosalari kredit skoring modellarining nazariy asoslarini tushunishda muhim ahamiyatga ega [5].

So'nggi yillarda VantageScore modeliga bag'ishlangan ilmiy ishlar ham kengaymoqda. Ushbu model bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda kredit tarixi cheklangan yoki yangi mijozlarni baholashda VantageScorening ustun jihatlari ko'rsatib berilgan. Ayrim olimlar VantageScoreni raqamli bank xizmatlari va fintex tizimlari uchun mos model sifatida baholaydilar [6].

MDH davlatlari olimlaridan O.Lavrushin bank kreditlash jarayonlari, risklarni boshqarish va kredit siyosatiga bag'ishlangan asarlarida chakana kreditlashni bank resurslarini joylashtirishning muhim yo'nalishi sifatida ta'riflaydi. U kredit qarorlarini qabul qilishda iqtisodiy-matematik modellardan foydalanish zarurligini ta'kidlaydi [7].

O'zbekiston olimlari orasida I. Jo'rayev, Sh. Zokirov, B. Berdiyev kabi tadqiqotchilar tijorat banklarida kredit siyosati, chakana kreditlashni rivojlantirish va risklarni kamaytirish masalalarini o'rgangan. Ushbu ilmiy izlanishlarda zamonaviy skoring modellarini milliy bank amaliyotiga joriy etish zarurligi ilmiy jihatdan asoslab berilgan [8, 9, 10].

Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur tadqiqotda empirik va nazariy darajadagi usullardan, ya'ni induksiya, deduksiya, tahlil va sintez, kuzatuv usullaridan foydalaniladi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Xalqaro bank amaliyotida tijorat banklari tomonidan chakana kreditlash keng qo'llanilib, ushbu jarayonda kredit ajratish bo'yicha qarorlar maxsus kreditlash modellari asosida qabul qilinadi. Mazkur modellar orasida eng mashhur va universal hisoblangan Fair Isaac Corporation (FICO) hamda VantageScore kredit skoring tizimlari alohida o'rin egallaydi. Ushbu tadqiqot doirasida mazkur skoring modellari batafsil tahlil qilinadi. Kredit reytingini hisoblash mexanizmini chuqur anglash mijozlarning kredit qobiliyatini baholash imkonini kengaytirish bilan birga, ularga kredit reytingini yaxshilash yo'llarini aniqlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi. FICO kredit skoring tizimi doirasida kredit ballini shakllantirish jarayonida har bir kredit tashkiloti tomonidan qarz oluvchining kreditga layoqatini tavsiflovchi bir qator asosiy omillar majmuasi hisobga olinadi. Mazkur omillar qarz oluvchining moliyaviy intizomi, kredit tarixining sifati hamda kredit majburiyatlarini bajarish qobiliyatini kompleks baholashga xizmat qiladi. Quyida qarz oluvchining kreditga layoqatini tavsiflovchi omillar keltirilgan.

1. To'lov tarixi (35 foiz).

To'lovlar tarixi FICO kredit ballini shakllantiruvchi eng muhim omil hisoblanadi, chunki u qarz oluvchining moliyaviy

majburiyatlarni bajarish intizomini aks ettiradi. Mazkur omilning ustuvorligi mantiqiy asosga ega bo'lib, kreditorlar uchun qarz oluvchining avvalgi kredit majburiyatlarini o'z vaqtida va to'liq bajarganligi to'g'risidagi axborot alohida ahamiyat kasb etadi. Aynan to'lovlar tarixining ijobiy yoki salbiy holati kreditorlarga kredit ajratish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan risk darajasini baholash hamda qarz oluvchiga nisbatan qabul qilinadigan xavf-xatar miqdorini aniqlash imkonini beradi.

2. Qarz summalari (30 foiz).

Qarz oluvchining kredit limitlari bilan bog'liq qarzlari (shuningdek, kreditdan foydalanish nisbati sifatida ham tanilgan) kredit tashkiloti hisobga oladigan yana bir muhim omildir. Ushbu yondashuv qarz oluvchining haddan tashqari qarz yuklamasiga ega bo'lishi kredit riskining oshishiga olib kelishi mumkin degan konsepsiyaga asoslanadi. Qarz majburiyatlarining yuqori darajada jamlanishi qarz oluvchining moliyaviy barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatib, defolt ehtimolini oshirishi mumkin. Aksincha, qarz oluvchining daromadlariga nisbatan qarz miqdorining past bo'lishi kreditorlar uchun uning moliyaviy holati barqaror ekanligi hamda kredit majburiyatlarini bajarmaslik xavfi nisbatan past ekanligini anglatadi.

3. Kredit tarixining davomiyligi (15 foiz).

Kreditdan foydalanish davomiyligi kredit ballini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, uzoq muddatli kredit tarixi qarz oluvchining moliyaviy xulq-atvorini barqaror baholash imkonini beradi. Reyting agentliklari va kredit tashkilotlari ma'lumotlariga ko'ra, ushbu omil doirasida kredit hisobraqamlarining qachon ochilganligi, alohida hisobraqamlarning faoliyat yuritish muddati hamda ulardan oxirgi foydalanilgan vaqt oralig'i kabi ko'rsatkichlar hisobga olinadi. Mazkur ko'rsatkichlar qarz oluvchining kredit bozoridagi tajribasi va kredit majburiyatlarini bajarishdagi izchilligini aniqlashda muhim mezon sifatida xizmat qiladi.

4. Kredit jamlanmasi (10 foiz).

Kredit tashkilotlari tomonidan qarz oluvchining kredit jamlanmasi, ya'ni unda mavjud bo'lgan kredit turlarining diversifikatsiyasi ham kredit ballini shakllantirishda muhim omil sifatida baholanadi. Bunda aylanma kredit hisobraqamlari, chakana savdo hisobvaraqlari hamda bo'lib-bo'lib to'lanadigan kreditlar kabi turli kredit mahsulotlarining mavjudligi va ularning holati inobatga olinadi. Turli xil kredit hisobraqamlariga ega bo'lish va ularni barqaror hamda intizomli tarzda yuritish mazkur toifada qarz oluvchining kredit reytingiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

5. Yangi kredit (10 foiz).

Kredit tashkilotlari kredit ballini baholash jarayonida qarz oluvchining yangi ochilgan kreditlari soni hamda yaqin davr mobaynida ochilgan kredit hisobraqamlarining faolligini ham inobatga oladi. Odatda, qisqa vaqt oralig'ida ko'plab yangi kredit hisobraqamlarining ochilishi qarz oluvchining kreditga bo'lgan yuqori ehtiyoji yoki moliyaviy bosim ostida ekanligidan dalolat berishi mumkin. Shu bois, bunday holat kredit riskining oshishi bilan bog'liq omil sifatida baholanadi va qarz oluvchining kredit reytingiga salbiy ta'sir ko'rsatishi ehtimoli mavjud.

Kreditga layoqatlilik masalasi doirasida yuqori kredit reytingiga ega bo'lish qarz oluvchi uchun muhim hisoblanadi. FICO kredit ballari 300 dan 850 gacha bo'lgan oraliqda shakllanadi. Quyida mazkur ball diapazonlari bo'yicha tasnif keltirilib, har bir darajaning iqtisodiy mazmuni hamda kredit riskini baholashdagi ahamiyati yoritib beriladi:

- A'lo kredit (800+): A'lo kredit balli o'rtacha ko'rsatkichdan ancha yuqori va bu kreditorlarga qarz oluvchi sifatida juda past risk ostida ekanligini bildiradi.

- Juda yaxshi (740 dan 799 gacha): Juda yaxshi kredit balli o'rtachadan yuqori va bu xavfning past darajasini ko'rsatadi.

- Yaxshi (670 dan 739 gacha): Yaxshi kredit balli o'rtacha yoki unga yaqin, shuning uchun ko'pchilik kreditorlar bu ballni maqbul deb hisoblashadi.

- Adolatli (580 dan 669 gacha): Adolatli kredit ballari o'rtacha darajadan past va ular kreditorlarga ma'lum darajadagi xavfni taqdim etishini ko'rsatadi. Biroq, qarz oluvchi hali ham adolatli kredit balliga ega bo'lgan kredit kartalari yoki kreditlar uchun ruxsat olishi mumkin.

- Yomon (579 yoki undan past): Yomon kredit balli qarz oluvchining avvalgi kredit majburiyatlarini belgilangan muddatlarda bajarmaganligi natijasida yuzaga keladi va bu holat uning moliyaviy barqarorligi past ekanligini ko'rsatadi. Shu sababli, yomon kredit balliga ega bo'lgan qarz oluvchiga kredit ajratish qarori yuqori moliyaviy xavf bilan bog'liq hisoblanadi va kreditorlar tomonidan ehtiyotkorlik bilan baholanadi.

Jahon chakana kreditlash amaliyotida keng qo'llaniladigan va mijozlarning kreditga layoqatliligini aniqlashda samarali vosita sifatida e'tirof etilgan yana bir model VantageScore hisoblanadi. Quyida VantageScore modelining xususiyatlari, tarkibi va uning baholash mezonlariga to'xtalib o'tamiz.

VantageScore modeli kredit hisobot agentliklari tomonidan qo'llanishi mumkin bo'lgan kredit skoring tizimlaridan biri hisoblanadi. Ushbu model 2006-yilda uchta yirik kredit hisobot beruvchi kompaniyalar tomonidan iste'mol krediti reytingini aniqlash maqsadida ishlab chiqilgan. Modelning asosiy vazifasi qarz oluvchining kreditga layoqatliligini aniqlik bilan baholash, ushbu jarayonni tushunishni osonlashtirish va undan samarali foydalanishni ta'minlashdir. Shundan so'ng VantageScore to'rtta evolyutsion bosqichdan o'tgan bo'lib, hozirgi kunda u bozordagi eng aniqlik darajasi yuqori va ishonchlilikka ega kredit skoring modellaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Ushbu tizimda ballar 300 dan 850 gacha o'zgarib turadi va kreditdan

foydalanish, to'lov tarixi, hisobvaraq turlari, hisobraqamlarning o'rtacha muddati va yangi hisobraqamlar soni kabi omillarni hisobga oladi.

VantageScore va FICO Score ikkalasi ham jismoniy shaxslarning kreditga layoqatliligini baholash uchun mo'ljallangan modellardir. Modellarning maqsadi qarz oluvchining to'lovdan 90 kun yoki undan ko'proq vaqtga ortda qolish ehtimolini aniqlashdir.

VantageScore skoring modeli bo'yicha, qarz oluvchining kredit reytingi qaysi tashkilotlarda tekshirilishidan qat'iy nazar bir xil bo'lishi kerak. Buning asosiy sababi shundaki, VantageScore uch yirik kredit byurosi tomonidan umumiy qabul qilingan yagona skoring modelidan foydalanadi. Aksincha, FICO modeli har bir byuroning o'ziga xos skoring algoritmgiga asoslanadi. Shu bois, qarz oluvchining FICO reytingi Equifax, Experian va TransUnion byurolari o'rtasida biroz farq qilishi mumkin, chunki ballar hisoblash usullari har bir byuroning o'z modeliga mos ravishda farqlanadi.

VantageScore 4.0 modeli o'zining so'nggi evolyutsion bosqichi orqali ilgari kredit reytingi mavjud bo'lmagan shaxslarga aniq va keng qamrovli kredit hisobotini taqdim etadi. Buning asosiy sababi shundaki, ushbu model ballarni hisoblashda nisbatan qisqaroq kredit tarixini inobatga olish imkoniyatiga ega.

Ballarni hisoblash uchun ishlatiladigan asosiy omillar FICO va VantageScore modellari o'rtasida taxminan bir xil bo'lsa-da, ular har bir omilning ta'sir darajasini turlicha baholaydi. Kredit tashkilotlari qarz oluvchining riskini baholash uchun VantageScore yoki FICO modelidan, ba'zan esa ikkalasidan ham foydalanishlari mumkin. Shu bilan birga, hisobga olinadigan ma'lumotlar o'xshashligi sababli, bir modelda kredit reytingini yaxshilashga xizmat qiladigan strategiyalar boshqa modelda ham samarali bo'lishi mumkin.

VantageScore modeli boshqa kredit skoring tizimlari kabi beshta asosiy omilni

hisobga oladi, ammo har bir omilga berilgan muhimlik darajasi turlicha bo'ladi. VantageScore modeli kreditdan foydalanish omiliga alohida e'tibor qaratadi va uni "juda ta'sirli" faktor sifatida baholaydi. Ushbu omil qarz oluvchining mavjud kredit miqdori va undan foydalanish darajasini, ya'ni aylanma qoldiqlarni kredit limitiga nisbatan o'lchash orqali baholaydi. Amaliy tavsiyalarga ko'ra, aylanma qoldiqlarni kredit limitining 30 foizidan oshirmaslik maqsadga muvofiq hisoblanadi, chunki bu kredit reytingiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. VantageScore kredit reytingi beshta diapazon bo'yicha tasniflanadi:

A'lo: 781–850 ball

Yaxshi: 661–780 ball

Qoniqarli: 601–660 ball

Qoniqarsiz: 500–600 ball

Yomon: 300–499 ball

Qarz oluvchining VantageScore diapazonini bilish moliyaviy salohiyatni baholashda muhim ahamiyatga ega, chunki bu ko'rsatkich kredit kartalari, kvartira ijarasi, shuningdek, turli turdagi kredit liniyalariga ariza berish jarayonida qaror qabul qilishga bevosita ta'sir qiladi. Agar kredit reytingi "yaxshi" yoki "a'lo" darajasida bo'lmasa, va kelajakda qo'shimcha kredit resurslaridan foydalanish rejalashtirilsa, reytingni yaxshilashga qaratilgan strategik choralarni darhol amalga oshirish tavsiya etiladi.

Bunday choralar quyidagilarni o'z ichiga olishi mumkin:

- ❖ mavjud qarzlarni o'z vaqtida va to'liq qaytarish;
- ❖ kredit limitlarini oqilona boshqarish;
- ❖ yangi kredit liniyalarini faqat zarurat bo'lganda ochish;
- ❖ moliyaviy majburiyatlarni muntazam kuzatish va moliyaviy intizomni mustahkamlash.

Natijada, qarz oluvchi o'z moliyaviy barqarorligini mustahkamlash bilan birga, kelajakda yirik kredit operatsiyalarida qulay shart-sharoitlardan foydalanish imkoniyatini oshiradi.

1-jadval

Chakana kreditlash modellari: FICO va VantageScore integratsiyasi*

Model nomi	Ta'rif	Afzalliklari	Kamchiliklari	FICO/VantageScore integratsiya imkoniyati
An'anaviy kreditlash modeli	Qo'lda yoki elektron ariza orqali moliyaviy tahlil va hujjatlar asosida kredit berish	Individual yondashuv, xavfni nazorat qilish oson	Qaror qabul qilish vaqti uzoq, xarajatlar yuqori	FICO va VantageScore orqali xavf bahosi qo'llanilishi mumkin
Standart kreditlash modeli	Kreditlarni standart shartlarda taqdim etish, tezkor ariza ko'rib chiqish	Tez va samarali, xarajatlar past	Individual ehtiyojlar to'liq inobatga olinmaydi	FICO/VantageScore ballari avtomatik kredit tasdiqlashda qo'llanilishi mumkin
Rizik asosida kreditlash modeli	Mijozning moliyaviy holati va kredit tarixiga qarab foiz stavka va shartlar belgilash	Xavfni samarali boshqarish	Kompleks tahlil talab qiladi	FICO va VantageScore ballari asosida xavfni aniq baholash mumkin
Onlayn va mobil kreditlash modeli	Internet va mobil platformalar orqali kredit berish	Mijozlar uchun qulay, tezkor	Kiberxavflar, ma'lumotlar xavfsizligi muammolari	FICO/VantageScore avtomatik kredit tasdiqlashda integratsiyalanishi mumkin
Mikrokredit va segmentatsiya asosida kreditlash modeli	Mijoz segmentlari bo'yicha kichik miqdordagi kreditlar	Ijtimoiy samara, mijoz bazasini kengaytirish	Operatsion xarajatlar yuqori	FICO/VantageScore orqali segment xavfi va qarz xavfini baholash mumkin

*Muallif tadqiqotlari natijasida shakllantirildi.

FICO va VantageScore integratsiyasi banklarga mijozning kredit xavfini aniq va tez baholash, avtomatik qarorlar qabul qilish va resurslardan samarali foydalanish imkonini beradi. FICO an'anaviy moliyaviy ma'lumotlarga asoslansa, VantageScore zamonaviy va kamroq ma'lumotga ega mijozlar

uchun ham reyting beradi. FICO va VantageScore skoring modellarining chakana kreditlash amaliyotiga integratsiyasi qarz oluvchining kreditga layoqatliligini aniqlash jarayonini optimallashtirish va kredit riskini samarali boshqarishni ta'minlashga xizmat qiladi.

2-jadval

2025-yilda eng yaxshi shaxsiy kredit foiz stavkalari [11]

Bank	Yillik foiz stavkasi	Minimal kredit balli	Taxminiy oylik to'lov	kredit summasi
Citi	9.99- 19.49%	680	355	2000-30000
Patelco	9.30- 17.90%	680	352	300-100000
USbank	8.74- 24.99%	Oshkor qilinmagan	349	1000-50000
SoFi	8.74- 35.49%	300	349	5000-100000
Discover	7.99- 24.99%	660	345	2500-40000
Upgrade	7.74- 35.99%	600	344	1000-50000
Lending Club	6.53- 35.99%	600	338	1000-60000
Upstart	6.50- 35.99%	300	338	1000-75000
Light STreem	6.24- 24.89%	660	336	5000-100000

Foiz stavkalari bank va platformaga qarab katta diapazonda o'zgarib, 6,24 foizdan 35,99 foizgacha yetadi. Eng past foiz stavkasi Light Stream va Upstart platformalarida (6,24-6,50 foiz), eng yuqori foiz stavkalari esa SoFi va Upgradeda (35,49-35,99%) ko'rsatilgan. Bu farq mijozning kredit reytingi, kredit muddati va risk darajasi bilan bog'liq.

Banklar kredit ajratish jarayonida qarz oluvchining kredit ballini inobatga oladi. Jadval ma'lumotlariga ko'ra, eng yuqori minimal talab Citi va Patelco banklarida 680 ballni tashkil etadi, eng past minimal ball esa SoFi va Upstart platformalarida 300 ballni tashkil etadi. US Bankda minimal kredit balli ochiq qolmagan bo'lib, bu holda qarz oluvchining reytingiga asosan individual kredit qarori qabul qilinadi.

Oylik to'lovlar asosan kredit summasi va foiz stavkasidan kelib chiqib shakllanadi. Jadvalda kredit summaları keng diapazonda bo'lishiga qaramay, taxminiy oylik to'lovlar 336-355 dollar atrofida o'zgaradi. Bu ko'rsatkichlar platforma va bankning kredit muddati va grafigiga bog'liq. Kredit summasi bo'yicha eng kichik miqdor Patelco banki tomonidan 300 AQSh dollar taqdim etiladi, eng katta kredit summasi esa 100,000 AQSh dollariga yetib, Patelco, SoFi va LightStream platformalarida mavjud. Mahalliy banklar va onlayn platformalar turli mijoz segmentlariga moslashgan, shuning uchun kredit limitlari ham farq qiladi.

Xulosa va takliflar.

Olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, hozirgi sharoitda tijorat banklarida chakana kreditlashni rivojlantirish va kredit portfelining barqarorligini ta'minlash kredit xavfini samarali boshqarish bilan uzviy bog'liqdir. An'anaviy kreditlash modellarida qarz oluvchining to'lov qobiliyatini baholash ko'p hollarda subyektiv omillarga tayanadi, bu esa kredit risklarining ortishiga sabab bo'lishi mumkin.

FICO va VantageScore kabi zamonaviy kredit skoring modellarining chakana kreditlash tizimlariga integratsiya qilinishi kredit qarorlarini qabul qilish jarayonini avtomatlashtirish, inson omilini kamaytirish va kredit xavfini aniq baholash imkonini beradi. Ushbu modellar mijozning kredit tarixi, to'lov intizomi va moliyaviy xulq-atvorini kompleks tahlil qilish asosida ishlab chiqilgan bo'lib, ular bank kredit portfelining sifatini yaxshilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, FICO modeli asosan an'anaviy moliyaviy ma'lumotlarga tayangan holda yuqori aniqlikda baholashni ta'minlasa, VantageScore modeli kredit tarixi cheklangan yoki yangi mijozlarni qamrab olish imkoniyati bilan ajralib turadi. Ushbu ikki modelni kompleks qo'llash banklar uchun mijozlar bazasini kengaytirish va moliyaviy inklyuziyani oshirishga xizmat qiladi.

Yuqoridagi xulosalardan kelib chiqib, tijorat banklarida chakana kreditlash modellarini takomillashtirish maqsadida quyidagi takliflar ilgari suriladi:

1. Chakana kreditlash amaliyotida FICO va VantageScore kredit skoring modellarini bosqichma-bosqich joriy etish hamda ularni bankning ichki risk-menejment tizimi bilan integratsiya qilish maqsadga muvofiqdir.

2. Kredit qarorlarini qabul qilish jarayonida skoring natijalaridan faqat tasdiq yoki rad etish vositasi sifatida emas, balki foiz stavkalari, kredit limitlari va kredit muddatlarini differentsiatsiya qilishda ham foydalanish tavsiya etiladi.

3. Chakana kreditlash modellarini raqamli bank xizmatlari, onlayn va mobil kreditlash platformalari bilan integratsiya qilish kredit ajratish jarayonini yanada tezkor va shaffof qilishga xizmat qiladi.

4. Kredit skoring modellarini qo'llash bilan bir qatorda, bank xodimlarining raqamli kompetensiyalarini oshirish va risk-menejment sohasida doimiy malaka oshirish tizimini joriy etish zarur.

Ushbu takliflarni amalga oshirish tijorat banklarida chakana kreditlash samaradorligini oshirish, kredit xavfini kamaytirish hamda

bank tizimining moliyaviy barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-sonli Farmoni. "O'zbekiston - 2030" strategiyasi to'g'risida. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 12.09.2023-y.
2. Durkin, T. A., Elliehausen, G., Staten, M., & Zywicki, T. (2014). *Consumer credit and the American economy*. Oxford University Press.
3. Fair, W. R., & Isaac, E. W. (1958). A practical application of weighted scoring methods. *Journal of the Operations Research Society of America*, 6(5), 492-498. <https://doi.org/10.1287/opre.6.5.492>
4. Saunders, A., & Cornett, M. M. (2019). *Financial institutions management: A risk management approach* (9th ed.). McGraw-Hill Education.
5. Mishkin, F. S., & Eakins, S. G. (2021). *Financial markets and institutions* (9th ed.). Pearson Education.
6. VantageScore Solutions, LLC. (2020). *VantageScore® 4.0 model overview*. (Korporativ ilmiy-amaliy nashr).
7. Lavrushin, O. I. (2018). *Banking: Theory and practice* (5th ed.). Moscow: KNORUS.
8. Jo'rayev, I. (2020). *Tijorat banklari depozit va kredit siyosatining bank resurs salohiyatiga ta'siri*. Tashkent: Iqtisodiyot nashriyoti.
9. Zokirov, S. S. (2019). *Tijorat banklarida kredit risklarini boshqarish*. Toshkent: Fan va texnologiya.
10. Berdiyev, B. B. (2021). *Chakana kreditlash va bank moliyaviy barqarorligi*. Toshkent: Iqtisod-Moliya.
11. <https://www.bankrate.com/loans/personal-loans/rates/>